

**O‘QUVCHILARNI FIRLASH QOBILIYATLARINI AXBOROTLARNI
TIZIMLI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

Tojiyev Husniddin Baxtiyorovich

Termiz Iqtisodiyoy va servis universiteti o‘qituvchisi

Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li

Termiz Iqtisodiyoy va servis universiteti o‘qituvchisi

Badalov Kamoliddin Rahmat o‘g‘li

Termiz Iqtisodiyoy va servis universiteti o‘qituvchisi

E-mail: kamoliddinb24@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot va bilim olish madaniyatini shakllantirishda didaktikaning ahamiyatini yoritish, bugungi kunda global rivojlanib borayotgan giper muhit texnologiyalaridan maqsadli foydalanish borasida e‘tibor berishimiz lozim bo‘lgan tarbiya va milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan hurmatni shakllantirish borsida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, didaktika, tarkiblashtirish, ko‘nikma, metodlar, texnologiya.

Bilamizki, bugungi kunda globallasuv davrida axborotlarni tarqatish zamonaviy qiyofaga kirdi. Ta‘lim sohasida ham axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb masala hisoblanadi [1]. Qo‘shimcha axborot manbai sifatida tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi [2]. Axborotning shovqinli, dabdabali va shu kabi shakllarda taqdim etilish sharoitlarida o‘quvchilarni asosiy va ikkinchi darajali obyektlarni ajrata bilishga o‘rgatish tarqatma materiallarning o‘ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi [3]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘zlar, jumlar, shakllardan iborat bunday topshiriqlarni taqdim etar ekan, o‘qituvchi ularni imkoni boricha ko‘proq maxsus (o‘chib-yonish, rang, o‘lcham va shakllar o‘zgarib turishi kabi) effektlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir [4]. Bu usul o‘quvchilarni real vaziyatga yaqinlashtirishga, uning axborotli muhitni kundalik hayotning bir qismi deb tasavvur etishi uchun sharoit yaratishga, binobarin, o‘quvchi e‘tiborining qizg‘in va barqaror bo‘lishini ta‘minlashga yordam beradi. Topshiriqlarda foydalaniladigan axborot oqimining shovqinlilik sharoitlarida axborotni tuzilmalashtirish mahoratini shakllantirish vazifasining samarali (muvaffaqiyatli) amalga oshirilishiga erishish uchun topshiriqlarni bajarish vaqtlarining qayd etilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Topshiriq majmuaviy tarzda bo‘lib, “osondan – murakkablikka” tamoyili asosida tuziladi: bunda birinchi topshiriq axborot tarkibidagi bitta ortiqcha elementni olib tashlashni nazarda tutadi va keyingi topshiriqlarning dastlabki topshiriq natijalaridan kelib chiqqan holda murakkablashib borishi ta‘minlanishi lozim bo‘ladi [5-7].

Amaliyotning ko‘rsatishicha, o‘quvchilarning nutqiy javoblari topshiriqlarning maqsadlari bilan bog‘liq bo‘lishiga erishish lozim. O‘quvchilar oldiga “mazkur mavzu doirasida yana qanday elementlarni o‘zaro bog‘lash mumkin, degan mazmunda mulohaza mavzusini qo‘yish mumkin [8].

Yoki savol: “Havola va giperhavola tushunchalari bor. Hamonoki “matn” bor ekan demak nima bo‘lishi kerak?” (Javob: gipermatn).

Savol: “Matn nimalardan iborat bo‘ladi?” (Javob: *so‘z, jumla va xatboshidan*).

Savol: “*Giperhavola bo‘yicha ko‘chirish jarayonini avtomatlashtirish uchun qanday texnik qurilma kerak bo‘ladi?* (Javob: *kompyuter*).

O‘quvchilarda, kompyuter apparatli va dasturiy ta‘minotning uyg‘unlashuvi sifatida qaralishi lozimligi haqidagi yakuniy tasavvur qoldirish kerak. Algoritmning mazkur qadamida ko‘zda tutilgan topshiriq yetarli miqdorda tayanch so‘z birikmalarini ajratib ko‘rsatilgan taqdirda bajarildi deya qayd etilishi mumkin.

Algoritmning navbatdagi qadam – axborotli maqola yaratishdir [9].

Axborotli maqola yaratish (yoki shakllantirish) tayanch so‘z birikmalarini (ya‘ni asosiy obyektlarni) ma‘lum tartib asosida joylashtirishni nazarda tutadi [10]. Topshiriq ustida ishlash jarayonida tayanch so‘z birikmalarini (ya‘ni asosiy obyektlarni) gipermatn tamoyillariga (ya‘ni umumahamiyatlilik, obyektografiya va hayot davriyligi tamoyillariga) muvofiq guruhlashtirish muhimdir [11-14].

Umumahamiyatlilik tamoyiliga ko‘ra, axborotli maqola tarkibiga kirgan so‘z birikmalari bir-biriga nisbatan tabaqaviylik munosabatida bo‘ladi, ya‘ni ular o‘zaro ahamiyatlilik darajasiga muvofiq bog‘lanadi [15-17].

O‘quvchilarga bolalar piramidachasiga o‘xshash vaziyat taqdim etiladi, ya‘ni ular imkoni boricha ko‘proq ma‘noni mujassam etgan (misol uchun, butun matn uchun ahamiyat kasb etishi mumkin bo‘lgan) tushunchani tanlaydilar. Keyin esa qolgan so‘z birikmalari orasida eng ko‘p sig‘imga ega bo‘lgan birikma va shu tartibda barcha tushunchalar muayyan tartib asosida guruhlashtirilguncha davom etaveradi [18].

Obyektografiya tamoyilining ma‘nosi shuki, unga ko‘ra, obyekt haqidagi axborot va ma‘lumotlarning barchasi imkoni boricha bitta axborotli maqoladan o‘rin olishi lozim. Aslida, o‘quvchilar obyekt haqidagi barcha axborot va ma‘lumotlarni uchta asosiy manbadan oladilar: darslikdan, o‘qituvchi bayonidan va qo‘shimcha materiallardan. Shu o‘rinda bunday axborotli maqolalarda imkoniyatning bir qadar cheklanganligini unutmaslik lozim, negaki, ular mazkur fan sohasini to‘liq qamrab ololmaydi [19]. Modomiki, didaktik maqsad o‘quvchilarda axborotni tuzilmashtirish mahoratni shakllantirishdan iborat ekan, obyekt haqidagi barcha axborot va ma‘lumotlarni qamrab olgan axborotli maqola katta hajmga (binobarin, ko‘psonli tayanch so‘z birikmalariga) ega bo‘lganligi uchun gipermediya qurishni o‘rganish uchun yetarli hisoblanadi [20]. Gipermatn mavzulari bo‘yicha o‘quvchining dunyoqarashini rivojlantirish faqat darsdan tashqari mashg‘ulotlarda yoki

o‘quvchining mustaqil bilish faoliyati davomida amalga oshirilishi mumkin. O‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan tushunchalar va vositalarning ro‘yxatini zaruratsiz kengaytirish o‘quvchining asosiy maqsaddan chalg‘ib ketishiga va vaqtni behuda yo‘qotishiga olib keladi [21-23].

O‘quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish, axborot tushunchasi va uning mohiyati haqida lug‘atlar “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, statistik to‘plamlar, davriy matbuot materiallari, shuningdek, Sh.Bo‘riyeva, E.B. Оспенникова, А.А. Оспенникова kabi olimlarning tadqiqotlari muhim manba vazifasini o‘tab, ulardagi ko‘pgina ma‘lumotlar ilmiy tadqiqot doirasiga kiritildi.

Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida tarbiya haqida: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” – deya ta‘kidlagan edilar. Kishilik jamiyati tomonidan to‘plangan tajribalarni yosh avlodga o‘rgatish jamiyatda yashashning zarur shartidir [24-28].

Ta'limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR

1. Baxtiyorovich, T. H. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH KO ‘NIMALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 153-159.
2. Tojiyev, H. (2023). FORMING THE ABILITY TO STRUCTURE INFORMATION TECHNOLOGY. *Conferencea*, 105-113.
3. Baxtiyorovich, H. T. (2022). OO ‘QUVCHILARDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY USULLARI VA TAMOYILLARI. *Conferencea*, 139-147.
4. Baxtiyorovich, T. H. (2021). Ways to Organize Extracurricular Activities in Mathematics and Teaching Methodology. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(10), 7-9.

5. Зокиров, Д. (2022). Она тили ва о‘qish sav odxonligi darslarida matn ustida ishlash yo‘llari. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(2), 288-291.
6. Zokirov Javohir G‘aybullo O‘g‘li (2023). ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KLASTER METODLARIDAN FOYDALANISH. Science and innovation, 2 (Special Issue 4), 76-79. doi: 10.5281/zenodo.7926259
7. Javohir G‘aybullo O‘g‘li Zokirov (2023). ZAMONAVIY ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINING YANGILANISHI, MAZMUNI VA AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 5 (NUU conference 3), 90-96.
8. Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li, 1-3-Sinf O‘Quvchilariga Ona Tili Va O‘Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari , Journal of Innovation, Creativity and Art: Vol. 2 No. 2 (2023): Journal of Innovation, Creativity and Art
9. Javohir G‘aybullo o‘g‘, Z. (2023). 1-3-Sinf O‘Quvchilariga Ona Tili Va O‘Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 161-163.
10. O‘G‘Li, Z. J. G., & Aliyarovich, T. E. (2022). BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 131-142.
11. Zokirov, J., & Matluba, T. (2022). ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI. TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(4), 218-223.
12. O‘g‘li, Z. J. G. (2022). O‘QUVCHILARNING DUNYOQARASHI, BILIMINI OSHIRISHDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 10(3), 124-129.
13. Muqimovich, Y. S. Use of Interactive Methods in Teaching Historical Topics in Primary School Reading Lessons. JournalNX, 326-329.
14. Yakubov, S., & Zokirov, Z. (2021). ЛЮБОВЬ К РОДИТЕЛЯМ И ПОЧИТАНИЕ ИХ-ОСНОВНОЕ ЗВЕНО ВОСПИТАНИЯ. Theoretical & Applied Science, (4), 439-442.
15. Zokirov, J. (2022). THE IMPORTANCE OF STRENGTHENING LESSONS IN STUDENTS' MOTHER TONGUE AND READING LITERACY. Academic research in modern science, 1(9), 344-348.
16. Sayfiddinovich, X. R., & Javohir Gaybullo og, Z. (2021). Boshlanganchi Sinf O‘quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Etnopedagogik Asoslari. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 62-71.

17. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Temirova, M. K. Q. (2021). Ethnopedagogical Fundamentals of Developing Interest in Natural Aesthetics in Primary School Students. *Scientific progress*, 2(7), 832-839.
18. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Xurramov, M. S. (2021). Use Of The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ethnopedagogical, Ethnographic Views Of Primary School Students. *Scientific progress*, 2(7), 846-853.
19. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Xurramov, M. S. (2021). Use Of The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ethnopedagogical, Ethnographic Views Of Primary School Students. *Scientific progress*, 2(7), 846-853.
20. Sayfiddinovich, K. R. (2021). The Role of using Interactive Methods in Primary School Lessons. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 114-123.
21. Zokirov, J. G. O., & Xurramov, R. S. (2021). Formation Of Ethnopedagogical Views Among Students Through The Study Of The Life And Work Of Alisher Navoi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 339-343.
22. Yoqubov, S., & Zokirov, J. (2017). OQUVCHILARNI SAVOL BERISHGA ORGATISH USULLARI. In *НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ* (pp. 110-112).
23. Rahmat ogli, B. K. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinf o 'qituvchisining didaktik-metodik kompetentligi xususiyatlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 160-165.
24. Kamoliddin, B., & Kholiqovna, K. N. (2023). A CONCEPTUAL APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF THE DIDACTIC-METHODICAL COMPETENCE OF THE FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHER. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 160-164.
25. Badalov, K. (2023). DEVELOPING THE CREATIVITY OF A PRIMARY CLASS TEACHER. *Open Access Repository*, 4(02), 141-148.
26. Kamoliddin, B. (2023, January). BOSHLANGICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI ORGANISH MANTIQIY KONIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. In *E Conference Zone* (pp. 35-39).
27. Badalov, K., & Xolmurodova, N. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QITUVCHILARINI DIDAKTIK-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Conferencea*, 63-66.
28. BADALOV, K. (2022, April). TOOLS FOR HELPING TO DEVELOP THE LOGICAL SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE TEACHING OF GEOMETRIC MATERIALS. In *E Conference Zone* (pp. 214-217).